The socio-philosophical significance of the principle of human dignity in the development of state–society relations

Jumayev Nuriddin Sodiqovich

Teacher, Ro‘zi Choriyev Specialized Boarding School of Arts, Termez

E-mail: uzbekxan1986@gmail.com ORCID: https://orcid.org/0009-0000-1763-7735

Abstract

This article examines the socio-philosophical significance of the principle of human dignity in improving relations between the state and society. It provides a scientific justification for the role of this principle in the development of civil society, the rule of law, and social justice. In addition, the article analyzes the methodological potential of the principle of human dignity in enhancing the effectiveness of public administration and increasing citizens’ social participation.

Keywords

human dignity, state, society, civil society, rule of law, social justice, social development, democracy, governance, methodology.

INSON QADRI TAMOYILINING DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Jumayev Nuriddin Sodiqovich

Termiz Ro’zi Choriyev nomida ixtisoslashgan san’at makrab-internati o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson qadri tamoyilining davlat va jamiyat munosabatlarini takomillashtirishdagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati tadqiq etiladi. Inson qadri tamoyilining fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va ijtimoiy adolatni qaror toptirishdagi o‘rni ilmiy asoslanadi. Shuningdek, mazkur tamoyilning davlat boshqaruvi samaradorligi hamda fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishdagi metodologik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: inson qadri, davlat, jamiyat, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat,

ijtimoiy adolat, ijtimoiy taraqqiyot, demokratiya, boshqaruv, metodologiya.

Kirish

Davlat va jamiyat munosabatlarining demokratik asoslarda rivojlanishi inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarda inson qadri tamoyili davlat boshqaruvi samaradorligi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi hamda ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim metodologik mezoni sifatida e’tirof etiladi. Mazkur tamoyil davlat faoliyatining mazmunini hokimiyat manfaatlaridan inson manfaatlari tomon yo‘naltirib, fuqarolarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, demokratik islohotlar chuqurlashayotgan sharoitda davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi modelini shakllantirishda inson qadri tamoyilining falsafiy mohiyatini ilmiy asoslash dolzarb masalalardan biridir. Chunki jamiyat taraqqiyoti iqtisodiy yoki siyosiy ko‘rsatkichlar bilangina emas, balki insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari, huquqiy himoyasi va ijtimoiy farovonligi bilan baholanadi. Shu bois inson qadri tamoyilining davlat va jamiyat munosabatlaridagi o‘rnini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish uning zamonaviy taraqqiyot paradigmasidagi metodologik ahamiyatini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu masalalarning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Asosiy qism

Davlat va jamiyat munosabatlarining mazmuni tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida siyosiy tuzum, ijtimoiy ehtiyoj va ma'naviy qadriyatlar ta'sirida o‘zgarib borgan. Zamonaviy demokratik taraqqiyot sharoitida esa ushbu munosabatlarning asosiy mezoni sifatida inson qadri tamoyili tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Chunki demokratik davlatning haqiqiy samaradorligi siyosiy institutlar soni yoki iqtisodiy o‘sish sur'atlari bilan emas, balki fuqarolarning huquq va erkinliklari qanchalik ta'minlanayotgani, ularning davlat boshqaruvida ishtiroki hamda munosib hayot

kechirish imkoniyatlari bilan belgilanadi [2; 3]. Shu bois inson qadri tamoyili davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy prinsipgina emas, balki zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning metodologik asosiga aylanmoqda. Falsafiy tafakkur tarixida davlat va shaxs munosabatlari masalasi doimo markaziy muammolardan biri bo‘lib kelgan. G.V.F. Hegel davlatni axloqiy g‘oyaning oliy shakli sifatida tavsiflar ekan, shaxs erkinligi aynan huquqiy davlat orqali ro‘yobga chiqishini ta'kidlaydi [1]. Uning nazariyasida davlat shaxs manfaatlarini cheklovchi mexanizm emas, balki erkinlikni amalga oshirishning institutsional shakli hisoblanadi. Mazkur qarash inson qadri tamoyilining huquqiy asoslarini anglashda muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki insonning qadr-qimmati davlat tomonidan beriladigan imtiyoz emas, balki huquqiy tizim orqali himoya qilinadigan ajralmas maqom sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy demokratik jamiyatlarda davlat va fuqaro o‘rtasidagi munosabatlar mazmuni sezilarli darajada o‘zgardi. Agar an'anaviy siyosiy tizimlarda fuqaro davlat manfaatlariga bo‘ysunuvchi obyekt sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi demokratik boshqaruv konsepsiyalarida davlatning o‘zi fuqarolarga xizmat qiluvchi institut sifatida talqin qilinmoqda. Mazkur yondashuv davlat boshqaruvining ma'muriy modelidan xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan boshqaruv modeliga o‘tishni anglatadi. Shu jihatdan inson qadri tamoyili davlat va jamiyat munosabatlarini demokratlashtirishning asosiy nazariy mezoni sifatida namoyon bo‘ladi [3].

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham aynan ushbu tamoyil konseptual darajada mustahkamlandi. Strategiyada barcha islohotlarning bosh maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda davlat organlari faoliyatini xalq manfaatlariga xizmat qildirishdan iborat ekani alohida qayd etilgan [3]. Natijada davlat va jamiyat munosabatlari vertikal boshqaruv tamoyillaridan fuqarolar manfaatlariga yo‘naltirilgan gorizontal hamkorlik modeliga o'tmoqda. Mazkur o‘zgarish davlatning vazifalarini kengaytirish emas, balki uning

faoliyat mezonlarini inson manfaatlari asosida qayta belgilashni anglatadi. Sh.M. Mirziyoyev o‘z asarlarida inson qadri va xalq manfaatlarini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, har bir davlat organi faoliyati, avvalo, fuqarolarning ehtiyojlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishi zarurligini ta'kidlaydi [2; 3]. Bu yondashuv davlat boshqaruvining falsafiy mohiyatini tubdan o‘zgartirib, insonni siyosiy tizimning passiv elementi emas, balki uning asosiy maqsadi va faol subyekti sifatida e'tirof etadi. Shu sababli inson qadri tamoyili davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch, ochiqlik va o‘zaro mas'uliyatni shakllantirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Mazkur tamoyilning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilishda Q. Nazarovning aksiologik qarashlari alohida e'tiborga loyiq. Olimning fikricha, qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining ma'naviy yo‘nalishini belgilovchi mezonlar bo‘lib, inson barcha qadriyatlarning markazi va asosiy maqsadi hisoblanadi [4]. Demak, davlat, huquq, iqtisodiyot va siyosat kabi ijtimoiy institutlarning ijtimoiy ahamiyati ham ularning inson manfaatlariga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv inson qadri tamoyilining davlat va jamiyat munosabatlarini rivojlantirishdagi falsafiy mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

J.Shodiyev inson qadri fenomenini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotning integrativ kategoriyasi sifatida baholab, uning amaliy mazmuni fuqarolarning huquqiy himoyasi, ijtimoiy faolligi va ma'naviy kamolotining uyg‘unligida namoyon bo‘lishini asoslaydi [5]. Mazkur qarash inson qadri tamoyilini faqat axloqiy tamoyil sifatida emas, balki davlat boshqaruvi samaradorligini baholash mezoni sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu bois davlat va jamiyat munosabatlarini takomillashtirish insonning huquqiy maqomini mustahkamlash bilangina cheklanmay, uning ijtimoiy tashabbuskorligi, fuqarolik mas'uliyati va boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirishni ham taqozo etadi.

Bizningcha, inson qadri tamoyilining eng muhim ijtimoiy-falsafiy xususiyati shundaki, u davlat va jamiyat manfaatlarini qarama-qarshi qo‘ymaydi, aksincha, ularni yagona maqsad — inson farovonligi va erkin rivojlanishini ta'minlash orqali uyg‘unlashtiradi. Shu jihatdan inson qadri demokratik boshqaruv, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni bog‘lovchi konseptual kategoriya sifatida zamonaviy taraqqiyotning metodologik poydevorini tashkil etadi.

Davlat va jamiyat munosabatlarining barqaror rivojlanishi fuqarolarning ijtimoiy faolligi, huquqiy madaniyati va davlat boshqaruvida ishtiroki bilan bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi inson qadri tamoyilining amaliy ifodasi hisoblanadi. Ergashev va Sharifxo‘jayev demokratik jamiyatni rivojlantirish konsepsiyasini tahlil qilar ekanlar, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faol ishtiroki hamda jamoatchilik nazoratining kuchayishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlovchi muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar [6]. Bu qarash inson qadri tamoyilining faqat huquqiy kafolatlar bilan emas, balki fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligi orqali ham ro‘yobga chiqishini ko‘rsatadi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi shaxsning huquqiy himoyasi bilan bir qatorda uning axloqiy mas'uliyatini ham talab etadi. A. Sherning fikricha, axloq insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini tartibga soluvchi ichki mezon bo‘lib, shaxsning qadr-qimmati faqat huquqlari bilan emas, balki uning jamiyat oldidagi mas'uliyatni anglash darajasi bilan ham belgilanadi [9]. Shu sababli inson qadri tamoyili huquqlar va majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi axloqiy kategoriya sifatida ham namoyon bo‘ladi. Demokratik jamiyatda fuqarolarning erkinligi ularning ijtimoiy mas'uliyati bilan uyg‘unlashgandagina davlat va jamiyat manfaatlari o‘rtasida barqaror muvozanat yuzaga keladi.

Inson qadri tamoyilining davlat va jamiyat munosabatlaridagi amaliy ahamiyati ijtimoiy adolat tamoyilining qaror topishida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. S.

Qahhorovning ta'kidlashicha, inson qadri masalasi ma'naviy taraqqiyotdan ajralgan holda rivojlana olmaydi, chunki shaxsning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va ma'naviy kamoloti jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir [8]. Demak, inson qadri nafaqat huquqiy himoya yoki iqtisodiy farovonlikni, balki ma'naviy yuksalishni ham o‘z ichiga oluvchi kompleks ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Mazkur yondashuv Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning falsafiy mohiyatini anglashga xizmat qiladi.

Davlat va jamiyat munosabatlarining zamonaviy modeli ochiqlik, shaffoflik va o‘zaro ishonch tamoyillariga tayanadi. G‘ofurov fuqarolik jamiyatining rivojlanishida inson manfaatlari ustuvorligini demokratik boshqaruvning eng muhim sharti sifatida baholaydi [7]. Olimning fikricha, davlat organlari faoliyatining ochiqligi hamda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi inson qadri tamoyilining real hayotdagi amaliy ifodasidir. Bunday yondashuv boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish bilan birga, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Natijada davlat va jamiyat munosabatlari ma'muriy bo‘ysunish emas, balki hamkorlik va o‘zaro mas'uliyat tamoyillari asosida rivojlanadi.

Nazarov va hammualliflar tomonidan yaratilgan **«Falsafa asoslari»** darsligida inson jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi hamda ijtimoiy taraqqiyotning mezoni inson manfaatlari va umuminsoniy qadriyatlarning ro‘yobga chiqish darajasi bilan belgilanishi qayd etiladi [10]. Mazkur nazariy qarash inson qadri tamoyilining faqat falsafiy tushuncha emas, balki davlat siyosatini baholashning universal metodologik mezoni ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bizningcha, bugungi kunda davlat va jamiyat munosabatlarini takomillashtirishning eng muhim sharti fuqarolarni boshqaruv obyektidan boshqaruv subyektiga aylantirishdir. Inson qadri tamoyili aynan shu vazifani amalga oshirishga

xizmat qiladi. Chunki shaxsning huquqiy himoyasi, ijtimoiy faolligi, ma'naviy kamoloti va boshqaruv jarayonlaridagi ishtiroki o‘zaro uyg‘unlashgandagina demokratik jamiyatning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Shu ma'noda inson qadri tamoyili davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi alohida prinsip emas, balki ularning mazmunini belgilovchi konseptual falsafiy asos sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv Yangi O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan islohotlarning insonparvarlik mohiyatini ochib berish bilan birga, zamonaviy demokratik taraqqiyotning istiqbolli nazariy modelini ham shakllantiradi.

Davlat va jamiyat munosabatlarining inson qadri tamoyili asosida rivojlanishi zamonaviy demokratik taraqqiyotning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Mazkur tamoyil davlat boshqaruvi samaradorligini fuqarolarning huquq va erkinliklari, ijtimoiy faolligi hamda ma'naviy kamolotini ta'minlash darajasi orqali baholash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan inson qadri davlat va jamiyat manfaatlarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi metodologik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Bizningcha, inson qadri tamoyilining amaliy qiymati shundaki, u davlat faoliyatini hokimiyat manfaatlari asosida emas, balki fuqarolarning qonuniy ehtiyojlari va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish mezonlari asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Natijada demokratik boshqaruv, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy adolat yagona konseptual tizimda uyg‘unlashadi [2; 3; 4; 5; 6].

Xulosa

Tadqiqot natijalari inson qadri tamoyili davlat va jamiyat munosabatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asosini tashkil etishini ko‘rsatdi. Mazkur tamoyil shaxsning huquq va erkinliklarini kafolatlash, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash hamda davlat boshqaruvini inson manfaatlariga yo‘naltirishning metodologik mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlillar asosida inson qadri demokratik davlat, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy adolatni o‘zaro bog‘lovchi integrativ falsafiy

kategoriya ekani asoslandi. Shu bois Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning barqarorligi va samaradorligi davlat hamda jamiyat munosabatlarini inson qadri tamoyili asosida takomillashtirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan manbalar ro’yxati

1. Гегель Г. В. Философия права. – Москва: Мысль, 1990. – 524 с.
2. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. – Toshkent: O`zbekiston, 2022. – 416 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: PF–60-son Farmon. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022.
4. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. – 85 б.
5. Shodiyev J.J. Inson qadri fenomeni: ijtimoiy-falsafiy tahlil : falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2025. – 78 b.
6. Ergashev I., Sharipov B., Jakbarov M. Jamiyatni erkinlashtirish va ma’naviyat. – T.: «Akademiya», 2002.
7. Gafurova N., Almosova Sh. Huquq ustuvorligi konsepsiyasining amaliy jihatlari // Yurist axborotnomasi. – 2022. – T. 2, № 6. – B. 84–91.
8. «Инсон қадри: тарихийлик ва замонавийликнинг илмий-назарий талқинлари»: республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Наманган, 2024.
9. Sher A. Axloqshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 328 b.
10. Назаров Қ., Файзихўжаева Д., Нурматова М., Шер А., Абдуллаева Н., Қалқонов Э., Қандов Б. Фалсафа асослари : дарслик. – Тошкент : Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2018. – 380 б.